

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK : 809.51 – 0

BBK: 81.2 (5 KIT)

N – 80

NOSIROVA SAODAT ABDULLAEVNA

**HOZIRGI ZAMON XITOIY TILI DIPLOMATIK TERMINLARINING LEKSIK-
SEMANTIK VA STRUKTUR TAHLILI**

10.02.22 – Osiyo, Afrika xalqlari, Amerika va Avstraliya

tub xalqlari tillari

Filologiya fanlari nomzodi

ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya

A V T O R E F E R A T I

Toshkent – 2008

Ish Toshkent davlat sharqshunoslik institutining xitoy filologiyasi kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

KARIMOV Akramdjan Abilevich

Rasmiy opponentlar:

filologiya fanlari doktori, professor

DADABAEV Hamidulla Aripovich

filologiya fanlari nomzodi

ALIMOVA Xolida Zikrillaevna

Etakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Himoya Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalarni himoya qilishga mo'ljallangan D 067.70.02 raqamli kengashning yil «___» _____ soat _____ da o'tadigan majlisida bo'ladi. Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 25- uy.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik institutining asosiy kutubxonasida tanishish mumkin.

Avtoreferat yil «___» _____ da tarqatildi.

Mavzuning dolzarbligi. “O‘zbekiston Xitoy timsolida mamlakatimiz mustaqilligining birinchi kunlaridan bizni qo‘llab-quvvatlab kelayotgan ishonchli, buyuk qo‘shni va hamkorni ko‘radi”[\[1\]](#). XXR iqtisodiy va harbiy salohiyatining rivojlanishi va tinchliksevarlikka asoslangan tashqi siyosati uning xalqaro aloqalardagi obro‘-e’tiborining kuchayib borishida muhim omil bo‘lmoqda. Mamlakatlarimiz o‘rtasida 2006 yili do‘stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to‘g‘risidagi davlatlararo Shartnomaning imzolangani ikki tomonlama aloqalar tarixida muhim voqea bo‘ldi. Ushbu Shartnoma hamkorlikni uzoq muddatli asosda rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi va 16 yil mobaynida imzolangan 200dan ziyod o‘zbek-xitoy shartnomalarini izchillik bilan amalga oshirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, xitoy tili diplomatiya sohasidagi maxsus leksikani tilshunoslik nuqtai nazaridan chuqur ilmiy va nazariy tahlil etish ehtiyoji tug‘ilmoqda. Qolaversa, xitoy tilidagi diplomatik leksika va ularning morfologik xususiyatlari monografik planda tadqiq etilmagan. Mazkur dissertatsiya hozirgi zamon xitoy tilidagi diplomatik terminlarning leksik-

semantik va struktur xususiyatlarini, diplomatiya sohasida so‘nggi 16 yil ichida keng qo‘llanilayotgan leksik qatlamni o‘rganishga, uning diaxronik va sinxronik tomonlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Mavzuning dolzarbligi, shuningdek, diplomatiya sohasiga oid hujjatlar va muzokaralar ahamiyatining o‘zib borishi bilan ham bog‘liq.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik va struktur tahliliga bag‘ishlangan lingvistik ishlar deyarli yo‘q. Mavjud ishlarda diplomatik hujjatlar tarixiy va stilistik uslub jihatidan qisman o‘rganilgan. Masalan, Xuan Dingchining 外交文汇文书教程 *Waijiao wenhui wenshu jiaocheng* “A Bilingual Study of Diplomatic Documents” / Series of Huang Jinqi’s Monographs on Diplomacy (Book I, Book II. World Affairs Press, Beijing 2004) monografiyasida hozirgi zamon xitoy tili diplomatik hujjatlari funksional-stilistik tahlil etilib, hujjatlarni boshqa chet tillarga tarjima qilishda uchraydigan qiyinchiliklarning yechimi, tarjima amaliyotini yengillashtirish usullari ko‘rsatib berilgan. Aynan shu muallifning 什么是外交 *Shenme shi waijiao* “What is Diplomacy” - A Bilingual Course / Series of Huang Jinqi’s Monographs on Diplomacy (World Affairs Press, Beijing 2004) ilmiy ishida esa xitoy tilidagi hujjatlarda keng qo‘llaniladigan ayrim terminlarning kelib chiqishi, tarixiy evolyusiyasi, umumdiplomatiyaning shakllanish bosqichlari o‘rganilgan. Shuningdek, Fan Sinmingning 外事使用文书大全 *Waishishiyong wenshu daquan* (Pekin, 1994) monografiyasida xitoy tilida yozilgan diplomatik hujjatlarning diaxronik tahlili o‘tkazilib, ularning stilistik xususiyatlariga alohida urg‘u berilgan. Ko‘rsatilgan manbalarda diplomatik hujjatlarning faqat tarixiy kelib chiqishi, diplomatik hujjatlarning tuzilish xususiyatlari tadqiq etilgan. Vaholanki, diplomatik terminlarning qo‘llanilish ko‘lami hujjatlar semantik maydoni bilan chegaralanib qolmasligi barchaga ma‘lum. Diplomatik terminlarning nafaqat hujjatlar bilan, balki diplomatik faoliyat, diplomatik personal, xalqaro konferensiyalar bilan bog‘liq xususiyatlari va boshqa leksik-semantik jihatlarini o‘rganish masalasi birinchi marta mazkur tadqiqot ishida amalga oshirilmoqda.

Tilshunoslik fanida diplomatik terminlar masalasiga, diplomatiya sohasi leksikasining shakllanishi va xususiyatlariga bag‘ishlangan ishlar ko‘p. Masalan, D.S.Kulmamatovning “Sredneaziatskie diplomaticheskie dokumenty i ix russkie perevody v XVII v. (Gramoti, chelobitnie)” (M., 1994) kitobida diplomatiya sohasi diplomatik hujjatlar prizmasi orqali tadqiq qilinib, XVII asrda faoliyatda bo‘lgan diplomatik hujjatlarning morfologik xususiyatlari hamda ularning ruscha tarjimalari qiyosan o‘rganilgan; X.Dadabaevning “Obshchestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazychnix pismennix pamyatnikax XI–XIV vv.” (T., 1991) ilmiy ishida XI–XIV asrlarda qo‘llanilgan diplomatiya leksikasi uch guruhga: 1) diplomatik shaxslarni ifodalovchi terminlar; 2) diplomatik aloqalarni ifodalovchi terminlar va 3) diplomatik hujjatlardagi terminlarga ajratilib tahlil etilgan va ularning hosil bo‘lishida o‘zlashtirish usulining samaradorligi misollar yordamida yoritilgan; A.A.Abdullayevaning “Leksika sferi mejdunarodnix otnosheniy (na materiale russkogo i uzbekskogo yazikov)” (T., 2003) nomzodlik dissertatsiyasida rus va o‘zbek tillaridagi xalqaro munosabatlar, shu jumladan, diplomatiya va xalqaro aloqalar sohasi terminlarining morfologik hamda leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy metod asosida tadqiq etilgan. Abduxoliq Abdurasul o‘g‘lining “Qadimgi Farg‘ona tarixidan” (T., 2002) kitobi xitoy manbalari asosida Farg‘ona haqida ilk ma‘lumotlar to‘plami sifatida yozilgan asar bo‘lib, unda Turkiston va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik, savdo-sotiq munosabatlarining tarixiy tomonlari ochib berilgan; I.T.Zografning “Mongolsko-kitayskaya interferensiya (yazik mongolskoy kanselyarii v Kitae)” (M., 2004) asarida mo‘g‘ul tilining xitoy tili diplomatik va kanselyariya terminologiyasining shakllanishidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan; Ye.M.Isserlinning “Leksika i frazeologiya sovremennix diplomaticheskix dokumentov” (M., 1966) kitobida rus tilidagi diplomatik hujjatlarda keng qo‘llaniladigan frazeologik birliklarning leksik-semantik, stilistik xususiyatlari, frazeologizmlarni tarjima qilishda uchraydigan muammoli tomonlar tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etilgan; F.F.Molochkovning “Diplomaticheskiy protokol i diplomaticheskaya praktika” (M., 1979)

kitobida diplomatiya sohasining umumiy jihatlari, diplomatik protokol, diplomatik etiket va diplomatlarning faoliyatiga doir tushunchalar tahlil etilgan va diplomatlar uchun qo'llanma hisoblanadi; Ye.N. Mouratovning "Diplomatic Documents and Diplomatic Correspondence in English" (M., 2001) asarida ingliz tilidagi diplomatik hujjatlar va diplomatik korrespondensiyaning stilistik xususiyatlari o'rganilgan va leksik-uslubiy jihatdan tahlil etilgan; X.S.Muxitdinova, A.A.Abdullayevalarning "Rasmiy uslubning diplomatik yozishmalar turi" (T., 1997) asari rus va o'zbek tillaridagi diplomatik hujjatlar turlarining leksik-semantik, funksional-uslubiy tahliliga bag'ishlangan; Q.Sh.Omonovning "XIV-XV asrlarda uyg'ur xatida bitilgan imtiyoz huquqini beruvchi davlat hujjatlarining lisoniy-uslubiy tadqiqi" (T., 1997) ilmiy ishida uyg'ur tilida bitilgan yorliqlar va davlat hujjatlarining lisoniy-uslubiy tahlili o'tkazilgan; Sh.Teylorning "Delovaya perepiska i obraszi dokumentov" (M., 2004) asarlarida rus va ingliz tillaridagi oddiy va maxsus diplomatik, tashqi aloqa hujjatlarining stilistik jihatlari, leksik-uslubiy tomonlari yoritilib berilgan; J.Sh.Safarovning "Struktura diplomaticheskogo diskursa i yego leksiko- frazeologicheskii sostav (na materiale angliyskogo yazika)" (Samarkand, 2000) nomzodlik dissertatsiyasida diplomatiya sohasida keng qo'llaniladigan frazeologik birikmalarining leksik-semantik xususiyatlari va ularning kognitsiyasi tahlil etilgan. Keltirilgan ilmiy ishlarning aksariyat qismida diplomatik leksikaning diaxronik tahlili o'tkazilgan. Lekin aynan hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminologiyasining o'zi tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiqot ob'ekti bo'lmagan.

Dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Toshkent davlat sharqshunoslik instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi asosida bajarilgan. Dissertatsiya mavzui mazkur institutning Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan (2004 yil 27 may, 9- sonli bayonnoma).

Tadqiqotning maqsadi. Ilmiy ishdan ko'zlangan asosiy maqsad hozirgi zamon xitoy tili diplomatiya terminologik sistemasini maxsus mustaqil terminologik tizim sifatida o'rganish va lingvistik nuqtai nazardan tahlil etishdir. Mazkur maqsad o'z ichiga hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarini diaxronik va sinxronik tahlil etish, diplomatik terminlarning yasallish va leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish, diplomatik terminlar, so'z birikmalari, hujjatlarining ilmiy kompetensiyasini yoritish kabi quyi maqsadlarni qamrab olgan. Shuningdek, muallif o'z oldiga ilmiy tadqiqot natijalari asosida tavsifanomalar ishlab chiqish, ushbu mavzuning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash vazifasini ham qo'ygan.

Tadqiqotning vazifalari. Ilmiy ishda quyidagi asosiy vazifalar amalga oshirildi:

- 1) hozirgi zamon xitoy tilida diplomatiya sohasiga oid ayrim terminlarning shakllanishi tahlil etildi;
- 2) hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik va struktur tahlili o'tkazildi;
- 3) ularning ichki hamda tashqi manbalar hisobidan hosil bo'lish usullari o'rganildi;
- 4) diplomatik terminlarning paradigmatic va syntagmatic jihatlari, mahsuldorlik xususiyatlari aniqlandi;
- 5) diplomatik hujjatlarda qo'llaniladigan semantik konstruksiyalar, protokol formulalari, neologizmlar va turg'un birikmalarining tahlili amalga oshirildi;
- 6) kognitiv usul yordamida ba'zi bir yangi diplomatik terminlarning mohiyati, qo'llanilish xususiyatlari yoritildi;

7) “maxsus til” tushunchasining mohiyati va chegaralarini aniqlash bilan “xitoy tilidagi diplomatik terminologiya” tushunchasining mazmun mohiyati ochib berildi;

8) ilmiy tadqiqot asosida ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot ob’ekti va predmeti. Ishning ob’ekti sifatida hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminologiyasi tanlab olindi. Diplomatik terminlarning leksik-semantik va struktur xususiyatlari o’rganildi.

Tadqiqot manbalari. Tadqiqotga manba sifatida Xuan Dingchining “A Bilingual Study of Diplomatic Documents” (“Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik hujjatlari”) (Pekin, 2004) va “What is Diplomacy” (“Diplomatiya asoslari”) (Pekin, 2004) kitoblari, Djon Vud va Djen Serreslarning “Diplomatic Ceremonial and Protocol” (“Diplomatik seremonial va protokol”) (Nyu York, 1999) kitobi, Fan Sinmingning “外事使用文书大全” (“Xitoy diplomatik hujjatlari”) (Pekin, 1994), Chinese–English Vocabulary of Foreign Affairs (Xitoycha-inglizcha diplomatik terminlar lug’ati) (Pekin, 1998), hamda S.A.Xashimova va A.A.Karimovlarning “汉乌俄外交词典han wu e waijiao cidian” (Xitoycha-o’zbekcha-ruscha diplomatik terminlar lug’ati) (XXR, 2004) kitoblari olindi. Original manba sifatida O’zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi, Xitoyning O’zbekistondagi elchixonasi, Shanxay hamkorlik tashkilotining Pekindagi Kotibiyati tomonidan taqdim etilgan rasmiy hujjatlardan ham keng foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari. Tadqiqotni amalga oshirishda mashhur tilshunolar L.Blumfeld, G.X.Bakiyev, L.V.Varxapovich, V.G.Gak, A.G’.G’ulomov, X.A.Dadabaev, A.A.Dragunov, T.L.Kandelaki, I.M.Kobozeva, V.I.Koduxov, V.A.Kurdyumov, D.S.Lotte, Dj. Layonz, Dj.L.Pakard, A.A.Reformatskiy, Ren Syuelyang, A.V.Superanskaya, O.P.Frolova, A.A.Xamatova, N.Xomski, A.Hojiev, Xuan Dingchi, Sh.Shoabdurahmonov, A.M.Qosimov, shuningdek, sharqshunoslardan K.Xafizova, A.Xodjaev, O.N.Shomatov, T.Xolmirzaev, A.A.Karimovlarning asarlariga suyardik.

Tadqiqot metodlari. To’plangan materiallar hozirgi zamon tilshunoslik fanida keng qo’llanilayotgan qiyosiy-tarixiy, matematik-logik, struktural, paradigmatic va sintagmatik, diaxronik va sinxronik, tavsifiy, tahliliy, kognitiv, komponent hamda statistik va interpretatsiya metodlari yordamida tahlil etildi. Ishda sistematika va umumiy konseptual yondoshuvlar ham katta o’rin egalladi. Ba’zi holatlarda mavzuning interaktiv xususiyatlaridan kelib chiqib, siyosatshunoslikka oid umumiy metodlardan foydalanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar quyidagilardan iborat:

1. Hozirgi kunda qo’llanilayotgan 外交 waijiao diplomatiya termini Qadimgi Xitoyda ham 外事 waishi ko’rinishidagi ekvivalentiga ega bo’lgan.

2. Diplomatik terminlarning leksik–semantik xususiyatlari turlicha. Diplomatik terminlar leksikasi o’z ichiga xalqaro diplomatik terminlar, diplomatik hujjatlar bilan bog’liq adabiy til so’zlari, kitobiy so’zlar, abbreviaturalar va qolipli birikmalarni oladi.

3. Xitoy tilidagi diplomatik terminlarning statistik tahlili murakkab terminlarning sermahsul ekanligini ko’rsatdi.

4. Diplomatik terminlarning hosil bo’lishida kompozitsiya usuli mahsuldor. Bu usulning atributiv, fe’l–ob’ektliv va kopulyativ modellari ichida aksariyat diplomatik terminlar atributiv model yordamida yasalgan.

5. O'zlashtirishning semantik kalka usuli asosan diplomatik xodimlar, diplomatik faoliyat, diplomatik hujjatlar ma'nosini ifodalovchi terminlarda samarali qo'llanadi. O'zlashtirishning fonetik usuli esa to'liq bo'lmagan shakldagi fonetik o'zlashmalar ko'rinishida atoqli otlar va xalqaro tashkilotlar nomlanishlarida ko'p uchraydi.
6. Diplomatik terminlarning asosiy qismi abbreviatsiya usulining oddiy, ya'ni 简称 jiancheng modeli yordamida hosil bo'lgan.
7. Affiksatsiya usuli orqali diplomatik terminlar yasashida asosan yarimsuffikslarning soni ko'p.
8. Diplomatik hujjatlarda keng qo'llaniladigan semantik konstruksiyalarning to'g'ri yoki noto'g'ri tarjima qilinishi xitoy tilida bitilgan hujjatlarning umumiy ma'nosiga katta ta'sir qiladi.
9. Diplomatik hujjatlarda qo'llaniluvchi asosiy protokol formulalari uch guruhga bo'linadi: 1) murojaat so'zlari; 2) hurmat ma'nosidagi so'zlar; 3) mulozamat so'zlari.
10. Klishe'larning asosiy qismi rasmiy hujjatlarning ikki tomonlama bitimlar turi kirish qismida ko'proq qo'llanadi.

Ishning ilmiy yangiligi.

- Birinchi marta xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik va struktur tahlili amalga oshirildi. Xitoy tilidagi "diplomatiya" terminining ma'nosi etimologik jihatdan o'rganildi.
 - Diplomatik terminlarning paradigmatic va sintagmatic jihatdan leksik-semantik turlari va hosil bo'lish usullari tahliliy, statistik, kognitiv metodlar asosida tadqiq etildi.
 - Diplomatik hujjatlarning leksik-semantik xususiyatlari o'rganildi, keng qo'llaniluvchi semantik konstruksiyalar, protokol formulalari, neologizmlar va turg'un birikmalarning ahamiyati va o'rni tahlil qilindi.
 - Abbreviatsiya usulining mavjud 合成 *hecheng* "sintetik" turi modellarining tahlili natijasida kognitiv metod asosida sonlar bilan bog'liq yangi model belgilandi.
 - Maxsus til umumiy tilning quyi sistemasi ekanligi xitoy tili diplomatiya terminologiyasi asosida isbotlandi. Bu sistemada ham umumiy tilda bo'lganidek ierarxik tarzda tashkil qilingan tuzilma faoliyat ko'rsatishi, uning elementlari o'zaro paradigmatic va sintagmatic munosabatda bo'lishi aniqlandi.
- Ilmiy ishning amaliy natijasi o'laroq "汉乌俄外交词典han wu e waijiao cidian" "Xitoycha-o'zbekcha-ruscha diplomatik terminlar lug'ati" (XXR, 2004) O'zbekistonda va Xitoyda nashr etildi. Lug'at xitoy ilmiy jamoatchiligi tomonidan ijobiy qarshi olindi. Pekindagi Xitoy Millatlar Universitetining "科学研究动态 Kexue yanjiu dongnian" (XXR, 2005 yil, № 1. B.77) va Gonkongda nashr etiluvchi "Chinese language review" (Gonkong, 2006 yil, aprel, № 83. B.71-73) ilmiy jurnallarida mazkur kitob haqida ilmiy taqrizlar chop etildi hamda ilmiy yangilik sifatida e'tirof qilindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, muallif hozirgi zamon xitoy tilining diplomatiya sohasidagi maxsus leksikasini birinchi marta monografik planda o'rgandi. Xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik va struktur xususiyatlari tahliliy va tavsifiy usulda, tarixiy-xronologik, kognitiv va statistik

metodlar asosida yoritildi. Muallif soʻz yasallishiga oid umumnazariy tadqiqotlarga tayangan holda, hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining yasallishini chuqur va har taraflama tahlil etishga harakat qildi.

Dissertatsiya materiallari umumiy diplomatiya sohasida, xususan Oʻzbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar va investisiyalar vazirligi, Savdo va sanoat Palatasi, Oʻzbekiston Respublikasining XXRdagi elchixona va boshqa vakolatxonalari, Oʻzbekiston Respublikasi va XXRda joylashgan Shanxay hamkorlik tashkiloti idoralarinining faoliyatida, sharqshunos filologlar uchun xitoy tili leksikologiyasi va leksikasiga oid maxsus kurslar tayyorlashda, oʻzbek, rus va xitoy tillarini oʻrgatish jarayonlarida, darslik, qoʻllanma hamda lugʻatlar tuzishda, diplomatik hujjatlar majmuasini ishlab chiqishda yordam beradi.

Natijalarning joriy qilinishi. Tadqiqot natijalaridan ToshDSHI xitoy filologiyasi boʻlimining bakalavriat bosqichidagi talabalari uchun moʻljallangan «Xitoy tili diplomatik terminologiyasi» boʻyicha maxsus kurs tayyorlashda foydalanildi.

Shuni ham taʼkidlash joizki, Oʻzbekiston Respublikasi va XXR oʻrtasida rasmiy diplomatik aloqalar oʻrnatilganligiga qariyb 16 yil toʻlgan boʻlsa-da, xitoy – oʻzbek diplomatiyasi sohasidagi terminlar lugʻati mavjud emas edi. 2003 yilda ushbu ilmiy ish muallifi va dots.A.A Karimov tomonidan tuzilgan “Xitoycha-oʻzbekcha-ruscha diplomatik terminlar lugʻati” (328 b.) birinchi marta Toshkentda va 2004 yilda XXRda nashr etilib, Xitoyning barcha yirik davlat kutubxonalariga tarqatildi[2]. Lugʻat yirik xitoy tilshunoslari tomonidan ijobiy qabul qilindi[3].

Ishning sinovdan oʻtishi. Mazkur dissertatsiya ishi boʻyicha xitoyshunoslik masalalariga bagʻishlangan milliy va xalqaro ilmiy anjumanlarda, jumladan, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari darajasidagi “Chet tili oʻqitishning dolzarb muammolari” ilmiy–amaliy anjumanida (2005 yil, 25-26 oktabr), Toshkent davlat sharqshunoslik instituti professor–oʻqituvchilarining “Xitoyshunoslikning dolzarb muammolari” (2005 yil, yanvar), “Sharq filologiyasining tugun va yechimlari” (2005 yil, fevral), “Xitoy va Janubiy–Sharqiy Osiyo: filologiya, siyosat va falsafa masalalari” (2006 yil, 1–2 fevral), “Xitoyshunoslikning dolzarb muammolari: filologiya, siyosat, iqtisodiyot va falsafa” (2006 yil, 4 dekabr, 2007 yil, 5 sentabr) mavzulardagi ilmiy-amaliy anjumanlarida hamda mazkur institutning turk filologiyasi kafedrasida tomonidan oʻtkaziladigan anʼanaviy filologiya masalalari shahar seminarida (2007 yil, 1 iyun) maʼruzalar qilingan.

Dissertant Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi “Isteʼdod” jamgʻarmasining 2005–2006 yillar grant sovrindori sifatida 2006 yil 12-15 mayda Shanxayda (XXR) oʻtkazilgan “The International Conference on Translation and Interdisciplinary Studies” Tarjimashunoslik masalalariga bagʻishlangan V xalqaro ilmiy konferensiyasi, 2006 yil 25-29 mayda Pekinda (XXR) oʻtkazilgan Tarjimashunoslik masalalariga bagʻishlangan 中国第五届诗歌翻译年会 xalqaro ilmiy konferensiyasida maʼruzalar qilgan hamda konferensiya ilmiy jurnallarida xitoy va ingliz tillarida ushbu mavzu boʻyicha maqolalari chop etilgan.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi tomonidan oʻtkazilgan “Aspirant, doktorant va tadqiqotchilarning respublika ilmiy–amaliy anjumani”da (2007 yil, 15-17 mart) dissertantning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari yuqori baholanib, “Pedagogika, psixologiya, taʼlim va tarbiya” yoʻnalishi boʻyicha tanlov gʻolibi sifatida III darajali diplom hamda maxsus mukofot bilan taqdirlangan.

Dissertatsiya ishi ToshDSHIning Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo tillari fakulteti xitoy filologiyasi va turk filologiyasi kafedralarining kengaytirilgan majlisida (2006 yil, 15 mart), mazkur institut huzuridagi 10.02.22 – Osiyo, Afrika xalqlari, Amerika va Avstraliya tub xalqlari tillari ixtisosligi

bo'yicha ilmiy seminar (2007 yil, 14 may) hamda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy seminar yig'ilishlarida (2007 yil, 20 iyun), shuningdek, Pekindagi Xitoy Millatlar Universitetining xitoy filologiyasi kafedrasida (2006 yil, 24 may) muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot bo'yicha 10 ta maqola va ilmiy anjumanlarda 3 ta ma'ruzalar tezisi e'lon qilingan. Bundan tashqari, 2004 yil XXRda “汉乌俄外交词典han wu e waijiao cidian” (“Xitoycha–o'zbekcha–ruscha diplomatik terminlar lug'ati”) (328 bet) Xeylongdzyang nashriyoti tomonidan katta tirajda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Har bir bob o'z mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda ichki qismlarga bo'lingan.

Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari, metodologik asosi, ilmiy va amaliy ahamiyati, manbalari, tuzilishi xususida ma'lumot beriladi.

Birinchi bob – “Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining kelib chiqishi va leksik-semantik tahlili”da xitoy tilidagi 外交*waijiao diplomatiya* terminining kelib chiqishi va hozirgi zamon xitoy tilidagi diplomatik terminlarning leksik-semantik tahlili amalga oshirilgan.

“Hozirgi zamon xitoy tilida diplomatik terminlarning struktur tahlili va ularning ichki hamda tashqi manbalar hisobidan hosil bo'lishi”ga bag'ishlangan ikkinchi bobda diplomatik terminlarning struktur jihatlarini hamda hosil bo'lish usullari tahlil etilgan.

“Hozirgi zamon xitoy tilidagi diplomatik terminlarning hujjatlardagi leksik-semantik xususiyatlari” deb nomlangan uchinchi bobda diplomatik hujjatlarda keng qo'llaniladigan semantik konstruksiyalar, protokol formulalari, diplomatik terminlar o'rnida qo'llaniluvchi neologizmlar va turg'un birikmalarning leksik-semantik xususiyatlari o'rganilgan.

Xulosada tadqiq etilgan materiallar tahlilidan kelib chiqadigan asosiy natijalar, nazariy va amaliy umumlashmalar bayon etiladi.

Dissertatsiyaning umumiy hajmi – 169 sahifa. Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar soni – 219 ta. Tadqiqotning “Ilova” qismida hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik, struktur, yasash usullari jadvallari, xitoy tilidagi diplomatik hujjatning namunasi, hozirgi zamon xitoy tili diplomatik hujjatlarida keng qo'llaniluvchi turg'un birikmalar keltirilgan.

DICSSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Birinchi bob “Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining kelib chiqishi va leksik-semantik tahlili”ga bag'ishlangan bo'lib, u ikki bo'limdan iborat.

1.1. bo'limda “Xitoy diplomatiyasi va xitoy tilidagi 外交*waijiao diplomatiya* terminining kelib chiqishi” masalasi yoritilgan. Diplomatiya Xitoyda qadimdan mavjud bo'lib, ushbu sohaga oid terminlar hozirgi kunda ham o'z tarixiy ma'nolarini saqlagan holda qo'llanilib kelmoqda. Xitoy diplomatiyasi nafaqat zamonaviy fenomen, balki Xitoy antik davriga oid tushunchadir.

Xitoy ilk diplomatik faoliyati G'arbiy Jou (er.av.ilk 771y.-er.av.II asr) sulolasi davridan boshlangan. U paytda Qadimiy Xitoy hukumatining ilk diplomatik tashrifi Birma va Hindistonga amalga oshirilgan[4]. Min sulolasi davriga kelib (1368-1644) Xitoy ulkan davlatga aylandi. O'sha vaqtda Min sulolasining vakili ilk bor Samarqandga diplomatik missiya bilan tashrif buyurgan[5]. Xitoy arxivlarida Amir Temur va Temuriylarning Min sulolasi imperatorlari bilan diplomatik yozishmalari saqlanadi. Bulardan Xun Lu imperatorining Amir Temur nomiga yo'llagan bir necha maktublari nusxasi hozirgi kunda Amir Temur muzeyida saqlanmoqda. Bu maktublarni atoqli xitoy tilshunos olimi Yasin Ashuriy eski xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Diplomatiya, xitoy tilidagi ekvivalenti - 外交 *waijiao* ning asl ma'nosi hozirgi kunda tushuniladigan *diplomatiya* terminining ma'nosidan ancha yiroq. Qadimgi Xitoy manbalariga ko'ra, xizmatkor o'z hokimining ishonchini suiiste'mol qilmasligi uchun *waijiao* dan saqlanishi lozim[6]. Bu o'rinda keltirilgan *waijiao* so'zida xizmatkorning boshqa bir hokim bilan maxfiy aloqasi nazarda tutilmoqda. 外交 *waijiao* so'zining boshqa bir qadimiy ma'nosi "shaxsiy ijtimoiy munosabat" demakdir. Sima Chien solnomasidagi "Deng Tongning tarjimai holi" asarida yozilishicha: "Deng Tong *waijiao* ni yoqtirmas edi"[7]. Bu yerda *waijiao* so'zi "xufyona aloqalar" yoki "boshqa shaxslar bilan ijtimoiy munosabatlarda bo'lish" degan ma'noni bildirgan bo'lishi mumkin. Xitoy tilidagi *waijiao* so'zi *diplomatiya* terminining ekvivalenti sifatida faqatgina yaqin vaqtlardan beri qo'llana boshlangan. Tom ma'noda *waijiao* so'zi "tashqi aloqalar" yoki "xorijiy mamlakatlar bilan aloqada bo'lish" demakdir. "Si Yuen" lug'atida berilgan ta'rifga ko'ra, *waijiao* so'zi bizning zamonamizda davlatlararo amalga oshiriladigan munosabatlar va davlatlararo imzolanuvchi ahdnomalarni bildiradi"[8].

Waijiao so'zining hozirgi zamonga kelib *diplomatiya* ma'nosida qo'llana boshlanishi qadimgi Xitoyda diplomatiya bo'lmagan degani emas. Qadimgi Xitoyda diplomatiya, diplomatik aloqalar mavjud bo'lgan. "Birlashish – parchalanish – qayta birlashish" davridagi o'zaro aloqalar, Xitoyning tarixiga oid manbalarda keltirilgan turli millatlar o'rtasidagi munosabatlar ham Xitoy diplomatiyasi uzoq o'tmishga ega ekanligidan dalolat beradi. Ushbu manbalarga tayangan holda qadimgi Xitoyning bir necha mashhur diplomatlarini sanab o'tish va diplomatiya sohasiga oid taktikalar, diplomatik mahorat, diplomatik maqsadlar, prinsiplar, strategiya, diplomatik kanallar hamda shakllarni umumlashtirish mumkin.

Qadimgi Xitoyda *diplomatiya* so'zi 外交 *waijiao* so'zi bilan emas, balki 外事 *waishi*, ya'ni "tashqi ishlar" so'zi bilan yuritilgan. Ushbu dalil dastlab Dzuo Juan solnomasida uchraydi[9]. Unda yozilishicha, Jongxang Xuanzi shunday deydi: "请复贾季，能外事"[10], ya'ni "Dzyadziga lavozim berilishini tavsiya etaman, chunki u 外事 *waishi* ga usta". Shuningdek, "Uch qirollik" romanida Sun Chuenning akasi Sun Se o'limi oldidan ukasiga quyidagicha vasiyat qiladi: "内事不决问张昭，外事不决问周瑜", ya'ni "Agar 内事 *neishi* dan ikkilansang, Jang Jao bilan maslahatlashgin, agar 外事 *waishi* ni o'zing hal qila olmasang, Jou Yudan maslahat ol"[11]. 内事 *neishi* va 外事 *waishi* qadimgi Xitoyda ichki va tashqi ishlarni bildirgan. Demak, qadimgi Xitoyda *diplomatiya* so'zi 外事 *waishi* so'zi bilan yuritilgan. Bu so'z o'z asl ma'nosini saqlagan holda hozirgi kunda ham keng qo'llanilmoqda. Xitoyda *diplomatiya* ba'zida 外务 *waiwu* so'zi bilan ham atalgan. Masalan, Chin sulolasi (1644-1911) davri oxirida Tashqi Ishlar bo'limi tashkil etilgan va uni 外务部 *waiwubu* deb atashgan. Bu hozirgi 外交部 *waijiaobu* (Tashqi Ishlar Vazirligi) so'zining ekvivalenti bo'lgan. Bundan tashqari, Xitoy diplomatiyasi sohasida 外援 *wai yuan* (xorijiy yordam) va 外宾 *waibin* (xorijiy mehmon) kabi ko'plab an'anaviy terminlar qo'llaniladi. Dzuo Juan solnomasida keltirilishicha: "Sulh tuzing, yarashing va 外援 *wai yuan* qidiring"[12]. Tang sulolasi (618–907) davrida yashab ijod etgan Yuen Jenning "何满子歌" ("Xeman qo'shig'i") asarida keltirilishicha: "Qadim zamonda hukmdorlar

外宾 *waibin* lar (xorijiy mehmonlar) sharafiga bazm uyushtirgan vaqtlarida 论鸣 *Lunming* kuyi 3 marta chalingan va nefrit toshidan yasalgan buyumlar namoyish etilgan” [13]. *Lunming* “Qo‘shiqdar kitobi”dagi qo‘shiqning nomi bo‘lib, u oliy darajadagi mehmonlarni kutib olish uchun kuylangan. Bu tarixiy dalil xitoyliklarning xorijiy mehmonlarga nisbatan naqadar e‘tiborli bo‘lganliklarini ko‘rsatadi.

1.2. bo‘lim “Hozirgi zamon xitoy tilida diplomatik terminlar va ularning leksik-semantik tahlili” ikki banddan iborat.

1.2.1. bandda “Asosiy tushunchalar va tahlil usullari” ko‘rib chiqildi.

Ma’lumki, har qanday so‘z (leksema) o‘zining xususiyatiga ko‘ra umummuomaladagi so‘z yoki termin bo‘lishi mumkin. Hozirgi zamon fanlari ko‘plab sohalariga bo‘linar ekan, ularda ishlatiladigan leksemlarning o‘rni, mohiyatini belgilab olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan termin va notermin so‘z yoki so‘z birikmalarini farqlash mezonlari aniq belgilangan.

Termin so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, u imkon qadar bir ma’nolikka intiladi. Biroq ma’lum bir tushuncha ayrim vaqtda bir nechta termin bilan berilishi mumkin. Oddiy so‘z uchun tashqi shakl muhim bo‘lsa, termin uchun birinchi o‘rinda uning mazmuni turadi. Shakl esa termin yaratilishining boshlang‘ich paytida aniq bo‘lmashligi mumkin. Bu terminning umumiy leksikadan farqini belgilab beradi. So‘z uchun uning jaranglashi, ya’ni tovushlar bilan ifodalanishi, mazmuni va nomlanilayotgan narsa-buyum o‘rtasidagi bog‘liqlik bir butunlik sifatida gavdalansa, terminda bunday butunlik kuzatilmaydi.

Demak, “termin - fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘z birikmasi; atama. Terminlar bir ma’noli bo‘lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo‘lmashligi kabi belgilari bilan ham umumiste’moldagi so‘zlardan farqlanadi” [14]. Diplomatik terminlar professionalizmlar qatlamiga oid tor doiradagi terminlardir. Diplomatik terminlarda sinonimiya hodisasining qo‘llanilishi ularning oddiy terminlardan farqini belgilab beradi.

1.2.2. bandda “Diplomatik terminlarning leksik-semantik tahlili” o‘tkazildi. “Maxsus til” tushunchasining hajmi va mazmun-mohiyatini ochib berish uchun mazkur tahlilni o‘tkazish maqsadga muvofiq. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik tahlili natijasida quyidagi leksik-semantik guruhlar ajratildi: 1) diplomatlar, diplomatik tuzilma; 2) diplomatik imtiyoz va diplomatik daxlsizlik; 3) diplomatik vakolatxonalar ustidan nazorat ishlari; 4) diplomatik faoliyat; 5) diplomatik hujjatlar; 6) xalqaro konferensiyalar; 7) BMT va asosiy xalqaro tashkilotlar.

Bu guruhlar tarkibidagi diplomatik terminlarning joylashuviga, ketma-ketligiga ierarxik munosabatlar ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, *diplomatlar*, *diplomatik tuzilma* guruhiga kiruvchi terminlarda: elchi – ishonchli vakil – maslahatchi – bosh konsul – birinchi kotib – ikkinchi kotib – uchinchi kotib - attashe va h.

Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminologiyasi, bir tomondan, murakkab freymalar tuzilmasidir, boshqa tarafdin esa, ushbu tuzilmani hosil qiluvchi freymalar, subfreymalar va slotlar o‘zaro murakkab aloqalarda bo‘lib, til dunyosining fragmenti bo‘lmish diplomatik terminlar sistemasining takomillashuvini ta’minlaydi.

Ikkinchi bob “Hozirgi zamon xitoy tilida diplomatik terminlarning struktur tahlili va ularning ichki hamda tashqi manbalar hisobidan hosil bo‘lish usullari” ikki bo‘limdan iborat.

2.1. bo‘limda “Hozirgi zamon xitoy tilidagi diplomatik terminlarning struktur tahlili” amalga oshirildi.

2.1.1. bandda “Sodda diplomatik terminlar” ko‘rib chiqildi. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining ma’lum bir qismi bir bo‘g‘inli so‘zlarga mansub. Bir bo‘g‘inli sodda terminlar *diplomatik missiya*, *diplomatik xodimlar* hamda *diplomatik hujjatlar* leksik–semantik guruhidagina uchradi. *Diplomatik missiya*, *diplomatik xodimlar* leksik guruhiga oid 司 *si*, 厅 *ting*, 室 *shi* “boshqarma, departament, bo‘lim”, 处 *chu* “idora, ofis”; *diplomatik hujjatlar* leksik guruhiga oid 条 *tiao*, 目 *mu* “modda”, 章 *zhang* “bob”, 函 *han*, 信 *xin* “maktub, xat”, 款 *kuan*, 段 *duan* “paragraf”, 节 *jie* “kichik bo‘lim”, 书 *shu* “hujjat” va 词 *ci* “nutq” bir bo‘g‘inli sodda terminlarning keng qo‘llanilishi aniqlandi. “Xitoycha-o‘zbekcha-ruscha diplomatik terminlar lug‘ati”dagi 1600dan ziyod diplomatik termin va iboralar asosida olib borilgan tahlil natijalari hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminologiyasida bir bo‘g‘inli sodda terminlarning soni nihoyatda kamligi va asosan diplomatik hujjatlar semantik maydonida keng qo‘llanilishini ko‘rsatdi.

Xitoy tilida bir bo‘g‘inlilar qatoriga yasama so‘zlar ham kiritiladi. Bular asosan so‘z yasovchi suffikslar yordamida yasalgan so‘zlardir. Bunday terminlar faqat *diplomatik missiya*, *diplomatik xodimlar* leksik guruhi tarkibida uchradi. Ular quyidagilar: 武官 *wuguan* “harbiy attashe”, 专员 *zhuan yuan* “attashe” va 记者 *jizhe* “muxbir”. Bu terminlar 官 *guan*, 员 *yuan* va 者 *zhe* so‘z yasovchi suffiks va yarimsuffikslarning so‘z o‘zagiga qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan bir bo‘g‘inli yasama terminlardir.

2.1.2. bandda “Qo‘shma diplomatik terminlar” tahlil etildi. Ikki sodda yoki undan ortiq so‘zlardan tuzilgan murakkab birlikni ifodalovchi so‘zlar qo‘shma so‘zlar deb ataladi[15]. Masalan, 外交 *waijiao* “diplomatiya” termini 外 *wai* “tashqi” va 交 *jiao* “aloqa” so‘zlarining birikuvidan hosil bo‘lgan ikki bo‘g‘inli qo‘shma termindir. Qo‘shma diplomatik terminlar oddiy va murakkab qo‘shma terminlarga ajratildi. Oddiy qo‘shma terminlarga ikki bo‘g‘inli va ikki bo‘g‘inli yasama qo‘shma terminlar, murakkab qo‘shma terminlar qatoriga ko‘p bo‘g‘inli va yasama ko‘p bo‘g‘inli qo‘shma terminlar kiritildi. Manbalar tahlilidan 1575 (=100%) diplomatik termin ichida oddiy qo‘shma terminlar soni 292 (=19%)tani, murakkab qo‘shma terminlar esa 1283 (=81%)tani tashkil etishi aniqlandi.

2.2. bo‘limda “Hozirgi zamon xitoy tilidagi diplomatik terminlarning ichki hamda tashqi manbalar hisobidan hosil bo‘lishi” o‘rganildi. So‘z yasash usuli mustaqil so‘z turkumlariga xos bo‘lib, so‘z yasashning biror usuli bilan yangi so‘z hosil qilish so‘z turkumlarining barchasi uchun birdek emas[16].

2.2.1. Kompozisiya usuli

Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining hosil bo‘lishi va rivojlanish usullari borasida olib borilgan tahliliy ish natijasida ularning aksariyat qismi so‘z yasashining kompozisiya usuli yordamida yasalganligi aniqlandi. Kompozisiya usuli asosida turli so‘z turkumlariga oid terminlar hosil bo‘lishi kuzatildi: 大使馆 *da shi guan* “elchixona” (大使 *dashi* elchi + 馆 *guan* qarorgoh); 仇视 *chou shi* “dushmanlik ko‘zi bilan qaramoq”, “dushmanlarcha muomalada bo‘lmoq” (仇 *chou* dushmanlik + 视 *shi* qaramoq); 穆斯林国家会议 *mu si lin guo jia hui yi* “musulmon davlatlarning uchrashuvi” (穆斯林 *mu si lin* musulmon + 国家 *guo jia* davlat + 会议 *hui yi* uchrashuv); 外交语言 *waijiao yuyan* “diplomatiya tili”(diplomatiya + til) va h.

Tobe negiz yordamida hokim negiz xususiyatlarini ko‘rib chiqish terminlarning ko‘p qismi atributiv model asosida hosil bo‘lganligini ko‘rsatdi. Komponentlar o‘rtasidagi atributiv aloqalarni o‘rganish natijasida ikki, uch va to‘rt bo‘g‘inli diplomatik terminlarning modellari aniqlandi. Ularning ko‘p qismi to‘rt bo‘g‘inli ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Kompozisiya usulining kopulyativ modeli bo‘yicha tuzilgan terminlar komponentlarining munosabati tenglashishga asoslangan. Teng bog‘lanish modeli asosida sinonimik negizlardan hosil bo‘lgan fe‘l so‘z turkumiga oid bir qator diplomatik terminlar ot turkumiga ham xos. Xitoy tilshunos olimlarining ta’kidlashicha, ikki sinonimik negizdan tuzilgan so‘z komponentlaridan biri hozirgi zamon xitoy tilida morfema sanaladi va ko‘p hollarda so‘z yasovchidir[17]. Qadimgi xitoy tilida ushbu komponentlar bir bo‘g‘inli mustaqil so‘z vazifasini bajargan.

Kompozisiya usulining fe‘l-ob’ektli modeli bo‘yicha tuzilgan diplomatik terminlar ham fe‘l, ham ot so‘z turkumiga oid. Ularning o‘ziga xos xususiyati – ajraluvchanlikka moyilligi, ya’ni turli kontekstlarda birinchi va ikkinchi komponentlar orasiga natija, holni ifodalovchi qo‘shimcha elementlar qo‘yilishi mumkin.

2.2.2. O‘zlashtirish usuli

Bu usul diplomatik terminlar hosil bo‘lishida mahsuldorlik jihatidan kompozisiya usulidan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi. Bu yerda o‘zlashtirishning asosan semantik turi kengroq qo‘llanilishi kuzatildi. O‘zga tildagi so‘z xitoy tiliga so‘zma-so‘z “tarjima” qilinishi ko‘plab diplomatik terminlarda uchraydi: 专员 *zhuanyuan* “attashe”, 国务卿 *guowuqing* “davlat kotibi”, 参赞 *canzan* “maslahatchi”, 顾问 *guwen* “referent”, 领事 *lingshi* “konsul” va h. O‘zlashtirishning bu turi asosan *diplomatik faoliyat*, *diplomatik xodimlar* leksik guruhiga xos. O‘zlashtirishning fonetik turi, xususan, to‘liq bo‘lmagan fonetik o‘zlashtirish turi *BMT va xalqaro tashkilotlar* leksik guruhi terminlarining yasaliishida faol hisoblanadi. Masalan: 法兰西共同体 *falanxi gongtongti* “Fransiya Ittifoqi” termini tarkibidagi 法兰西 *falanxi* “Fransiya” so‘zi, 阿拉伯国家联盟 *alabo guojia lianmeng* “Arab Davlatlari Ligasi” termini tarkibidagi 阿拉伯 *alabo* “Arab” so‘zi to‘liq bo‘lmagan fonetik o‘zlashma bo‘lib, o‘zlashtirilish jarayonida manba tildagi undosh unliga aylangan.

2.2.3. Abbreviatsiya usuli

Diplomatik muzokaralarda abbreviatsiya usuli yordamida hosil bo‘lgan terminlar ham keng qo‘llaniladi. Bunga asosiy sabab vaqt tejamkorligiga intilish, deyish mumkin. Abbreviatsiya usuli yordamida yasalgan diplomatik terminlarning ko‘pi *BMT va xalqaro tashkilotlar* leksik guruhiga tegishli. Aynan shu guruh diplomatik terminlarning yasaliishida kognitiv usulning alohida ta’siri kuzatiladi. Abbreviatsiya usuli yordamida hosil bo‘lgan diplomatik terminlar oddiy 简称 *jiancheng* va sintetik 合称 *hecheng* qisqartmalarning turli modellari bo‘yicha tahlil qilindi. Oddiy qisqartirishning (简称 *jiancheng*) 5 turdagi modeli asosida tuzilgan abbreviaturalar asosan terminlarning to‘liq formasi bilan mos keladi. Bunday diplomatik terminlar soni sintetik qisqartirishning (合称 *hecheng*) uch turdagi modeli yordamida hosil bo‘lgan terminlardan ko‘p.

Diplomatik terminlarning hosil bo‘lishida milliy ong, regional, kasbiy kabi tashqi omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Masalan, regional faktor ta’sirida ko‘plab xalqaro tashkilotlar nomlarini ifodalovchi terminlar yasaladi. Abbreviatsiya usuli yordamida hosil bo‘lgan terminlar eng past ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Chunki diplomatik hujjatlarda abbreviaturalarning keng qo‘llanilishi tarjima jarayonini qiyinlashtiradi.

2.2.4. Affiksatsiya usuli

Affiksatsiya soʻz yasashining suffiksatsiya, yarimsuffiksatsiya va prefiksatsiya usullari *diplomatik personal, diplomatik faoliyat* leksik guruhlarida faol ishtirok etadi. Baʼzi yarimsuffiksalar: 员 *yuan*, 家 *jia*, 者 *zhe*, 官 *guan* ayrim xitoy tilshunoslari tomonidan soʻz yasovchi morfema sifatida tahlil qilingan.

Xitoy tili diplomatik terminlari misolida mazkur yarimsuffiksalar gapda bir-birining oʻrnida qoʻllana olishi, u yoki bu kasb egasi maʼnosini ifodalashi ularga soʻz yasovchi morfema deb qarash imkonini beradi. 化 *hua* yarimsuffiksi asosan bir holatdagi narsa–voqeaning boshqa holatga oʻtishi, 性 *xing* yarimsuffiksi esa abstrakt maʼnodagi terminlar hosil qilishda koʻp qoʻllanilishi kuzatildi. 化 *hua* oʻzbek tilidagi harakat nomi formasini yasovchi “-(u)v” affiksiga toʻgʻri kelsa, 性 *xing* “xususiyat” maʼnosiga juda yaqin.

Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining yasashida 第 *di*, 反 *fan*, 无 *wu*, 多 *duo*, 非 *fei* prefikslari ishtirokida yasalgan diplomatik terminlar soni ortiq boʻlsa-da, yarimsuffikslarning mahsuldorlik koʻrsatkichi ancha yuqori. Ushbu prefikslar ichida 反 *fan*- “emas” va 无 *wu*- “emas” prefiksi maʼno jihatidan yaqin prefikslar hisoblanadi.

Diplomatik hujjat matni asosida ishlab chiqilgan quyidagi tahlil natijalari diplomatik terminlar hosil boʻlishida soʻz yasash usullarining mahsuldorlik darajasini kuzatish imkonini beradi (jami 485 soʻz = 100 %, yaʼni 1716 ieroglif):

Kompozitsiya			Oʻzlashtirish		Abbreviatsiya		Affiksatsiya		
449 ta = 93 %			25 ta = 5 %		5 ta = 0,8 %		6 ta = 1,2 %		
Atributiv model	Kopulyativ model	Feʼl-obʼektli model	Semantik kalka	Fonetik kalka	Oddiy	Sintetik	Prefiks	Suffiks	Yarim cuffiks
231 ta =51%	107 ta =20%	111 ta =22 %	15 ta = 3 %	10 ta =2 %	4 ta =0,7%	1 ta =0,1%	4ta =0,8%	0	2ta =0,4%

Uchinchi bob “Hozirgi zamon xitoy tilidagi diplomatik terminlarning hujjatlardagi leksik–semantik xususiyatlari” deb nomlanadi va uch boʻlimdan iborat.

3.1. boʻlimda “Diplomatik hujjatlarda qoʻllaniluvchi semantik konstruksiyalar” tahlil qilingan. Semantik konstruksiyalarning aksariyat qismi semantik komponentlardan tashkil topgan. Semantik komponentlar turli diplomatik hujjatlarda keng qoʻllaniladi va koʻpincha bir semantik element turli mavzudagi diplomatik hujjatlarda turlicha talqin etiladi.

“XXR va Oʻzbekiston Respublikasi oʻrtasida doʻstona hamkorlikni rivojlantirish masalalariga bagʻishlangan qoʻshma bayonot” matni asosida semantik komponentlarning mahsuldorligini aniqlash maqsadida olib borilgan miqdoriy tahlil natijalariga koʻra 485 termin (=100 %; 1716 ieroglif) tarkibida ularning miqdori 43 ta (= 8 %) ni tashkil etdi. 应 *ying* “...ga koʻra”, 于 *yu* “...dan”, 就 *jiu* “shu zahoti, tez”, 及 *ji* “shuningdek, ...bilan birga”, 以 *yi* “bilan birga”, 并 *bing* “shuningdek”, 将 *jiang* “kelajakda”, 与 *yu* “bilan, hamda” semantik komponentlari koʻp ishlatilgani statistik jihatdan aniqlandi.

Tahlillar bir bo'g'inli semantik komponentlar qatorida qolipli birikma ko'rinishidagi semantik komponentlar ham nisbatan keng qo'llanilishini ko'rsatdi. Semantik komponentlar sinonimiyasini "...da" ma'nosini ifoda etish uchun qo'llanilgan 在。。。中 *zai ...zhong* va 在。。。上 *zai ...shang* misolida, 鉴于 *jiānyu* va 对此 *duìcǐ* "...sababli, ...ga"; 及 *jì*, 以 *yǐ*, 并 *bìng* "shuningdek, ...bilan birga" kabi semantik komponentlarda ko'rish mumkin.

3.2. bo'lim "Diplomatik hujjatlarda qo'llaniluvchi asosiy protokol formulalarining leksik-semantik xususiyatlari"ga bag'ishlangan bo'lib, bu yerda diplomatik hujjatlarda ko'p qo'llaniladigan "protokol formulalari" tahlil etildi va natijada quyidagilar ma'lum bo'ldi:

a) murojaat so'zlari rasmiy hujjatning boshlanish, hurmat ma'nosidagi so'zlar diplomatik hujjatlarning ham bosh, ham o'rta, mulozamat so'zlari va iborolari rasmiy hujjatlarning yakuniy qismida qo'llaniladi. Murojaat so'zlari shaxslarning gender, ijtimoiy va professional ahvoriga qarab turlanishi kuzatiladi;

b) mulozamat so'zlari, odatda, davlat rahbarlari, podshoh, Tashqi ishlar vaziri kabi shaxslarga, murojaat so'zlari oddiy kishilarga nisbatan ishlatiladi. Mulozamat so'zlari va iboralaridan foydalanilganda, ikki Tomonning jamiyatda tutgan o'rni, o'zaro aloqasi va siyosiy vaziyatni nazarga olish lozim;

v) diplomatik hujjatlarning yakuniy qismida qo'llaniluvchi mulozamat so'zlari quyidagi turlarga bo'linadi: 1) rasmiy hujjatning boshlanish qismida yoziladigan salomlashuv so'zlari; 2) rasmiy hujjat yakunida imzodan oldin yoziladigan hurmat-ehtirom ma'nosidagi mulozamat so'zlari.

3.3. bo'limda "Diplomatik hujjatlarda diplomatik terminlar o'rnida qo'llaniluvchi neologizmlar va turg'un birikmalarning leksik-semantik xususiyatlari" tadqiq etildi. Hozirgi kunda xalqaro diplomatik hamda xalqaro huquq terminologiyasi, diplomatik hujjatlar bilan bog'liq adabiy til leksik guruhlarida turg'un birikmalar va neologizmlar bilan boyish tendensiyasi kuzatilmoqda. Diplomatik hujjatlar guruhi leksikasi diplomatik protokol va xalqaro an'analar bilan bog'liq bo'lganligi sababli bu guruhdagi terminlar nisbatan barqarordir. Turg'un birikmalar asosan rasmiy hujjatlarning ikki tomonlama bitimlar turi kirish qismida ko'proq qo'llanadi.

XULOSA

Tahlillar quyidagi asosiy xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Tarixiy manbalar asosida Qadimgi Xitoyda *diplomatiya* terminining ma'nosini ifodalovchi ikki termin 外事 *waishi* va 内事 *neishi* mavjudligi aniqlandi. 外事 *waishi* tashqi aloqalar, 内事 *neishi* ichki ishlar diplomatiyasi ma'nosida qo'llanilganligi ma'lum bo'ldi. 外交 *waijiao* *diplomatiya* termini Qadimgi Xitoyda "xufyona aloqalar", "xizmatkorning sotqinligi" ma'nolarida ishlatilganligi, bu termin ijobiy ma'nosida faqat yaqin vaqtlardan beri qo'llana boshlanganligi faktik materiallar asosida isbotlandi.

2. Diplomatik terminlarni leksik-semantik guruhlariga ajratish ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berdi: a) *diplomatik xodimlar* turkumidagi terminlarda 外交人 *waijiaoren* *diplomat* termini dominant hisoblanadi; b) *diplomatik guruhlar*ga oid terminlar o'rtasida "ierarxik" munosabatlar mavjud; v) *diplomatik hujjatlar* guruhida bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi terminlar ko'p uchraydi. Sinonimiya hodisasining diplomatiya sohasida, ayniqsa, diplomatik hujjatlarning

nomlanishida keng qo'llanilishi salbiy oqibatlariga olib kelishi amalda kuzatilgan. Shu bois hujjatlar imzolanishidan oldin sinologlar tomonidan sinchkovlik bilan tahlil etilishi zarur.

3. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminologiyasining leksik-semantik va struktur tahlili natijalari kognitiv lingvistikada hosil bo'lgan tushunchaning aniqligini yana bir bor tasdiqlaydi: freym uch tomonlama namoyon bo'ladi: a) ontologik nuqtai nazardan – freym konkret turdagi ilmiy–amaliy harakatning, munosabatlarning tuzilishini ko'rsatadi; b) gnoseologik nuqtai nazardan – mazkur harakatning namoyandasi sifatida harakatning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi, ya'ni freym ilmiy–amaliy harakatni tushunish natijasi sifatida gavdalanadi; v) kognitiv nuqtai nazardan – freym inson ongida shakllangan bilimlarning formallashgan tuzilmasi sifatida gavdalanadi.

4. Diplomantik terminlarning struktur tahlili natijasida ularning 77% ini ikki bo'g'inli qo'shma terminlar, 17% ini ikki va undan ortiq bo'g'inli qo'shma terminlar va 6% inigina bir bo'g'inli sodda terminlar tashkil etishi ma'lum bo'ldi.

5. Hozirgi zamon xitoy tilidagi diplomatik terminlarning hosil bo'lishi nuqtai nazaridan tahlili ularning aksariyat qismi kompozitsiya usuli orqali hosil bo'lganligini ko'rsatdi:

a) atributiv model asosida tuzilgan diplomatik terminlar tarkibidagi hokim negizning 13 xil jihati tobe negiz orqali tavsif etildi va natijada bu modelning hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining yasashida faol ishtirok etishi ko'rsatildi;

b) kopulyativ modeldagi sinonimik negizlardan hosil bo'lgan fe'l turkumidagi diplomatik terminlar, shuningdek, ot so'z turkumi vazifasida ham qo'llanilishi ma'lum bo'ldi;

v) fe'l–ob'ektlilik model bo'yicha tuzilgan diplomatik terminlarning asosiy qismi fe'l so'z turkumiga oidligi, ular tarkibidagi fe'lli negiz ot turkumidagi negiz ustidan nazorat qilishi aniqlandi.

6. O'zlashtirish usulining semantik kalka turi yangi diplomatik terminlar yasashida faol ishtirok etishi, fonetik kalka usuli orqali ko'proq *BMT va xalqaro tashkilotlar* guruhidagi terminlar hosil bo'lishi aniqlandi. Chunki aynan shu guruhda atoqli nomlar ko'p qo'llanilib, ularni ifodalashda fonetik kalka usuli qulay. Qolgan guruhlarda asosan semantik kalka usuli keng qo'llaniladi. Xitoy tilidagi bo'g'inlarning morfologik (semantik) ma'noga ega ekanligi bu tilga fonetik o'zlashmalarning kirib kelishiga to'sqinlik qiladi.

7. Abbreviatsiya usuli yordamida hosil bo'lgan terminlarning ko'pi *BMT va xalqaro tashkilotlar* leksik guruhiga tegishli ekanligi aniqlandi. Aynan shu guruh diplomatik terminlarining yasashida kognitiv usulning alohida ta'siri kuzatildi. Abbreviaturalarni tushunish jamiyatni, til ichidagi «tilni» tushunish va uni ishlata bilishni anglatadi.

Abbreviatsiya usulining 简称 *jiancheng* “oddiy” va 合成 *hecheng* “sintetik” turlari tahlili uning oddiy turi yordamida hosil bo'lgan diplomatik terminlar soni ko'pligini ko'rsatdi. Chunki abbreviatsiyaning sintetik turi orqali terminlar hosil bo'lishi uchun so'z birikmasi tarkibidagi har bir komponent umumiy, jamlovchi komponentga ega bo'lishi shart. Bu esa barcha so'z birikmalari tarkibida uchramaydi. Abbreviatsiyaning oddiy turi bo'yicha bir nechta modellar aniqlandi va formulalari ishlab chiqildi. Kognitiv metod asosida 合成 *hecheng* “sintetik” turining sonlar bilan bog'liq yangi modeli belgilandi.

8. Hozirgi zamon xitoy tilida affiksali so'z yasashining suffiksatsiya, yarimsuffiksatsiya va prefiksatsiya usullari *diplomantik personal*, *diplomantik faoliyat* leksik guruhlarida faol ishtirok

etishi aniqlandi. Tahlillar diplomatik terminlar yasashida prefikslar soni ortiq bo'lsa-da, yarimsuffikslarning mahsuldorlik ko'rsatkichi (6.2%) prefikslar ko'rsatkichi (2.68%) dan ancha yuqori ekanligini ko'rsatdi.

9. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining hujjatlarda qo'llanilishi bo'yicha olib borilgan tahlil natijalari quyidagilardan iborat:

9.1. Diplomatik hujjatlarda bir bo'g'inli semantik komponentlar qatorida qolipli birikma ko'rinishidagi semantik komponentlar ham nisbatan keng ishlatilishi kuzatildi. Semantik komponentlarning qo'llanilishida sinonimiya hodisasi uchraydi. Ma'lum bir semantik komponent turli so'zlar bilan birikib, bir vaqtning o'zida bir necha ma'no ifodalashi diplomatik hujjatlarni tarjima qilish jarayonida qiyinchiliklar tug'diradi.

Xitoy tilida yozilgan diplomatik hujjat tarkibida bir nechta semantik komponentning qo'llanilishi hujjatga tantanavorlik va ekspressivizm bag'ishlaydi. Semantik komponentlarning noo'rin ishlatilishi hujjat mazmunining tubdan o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ularni o'rganish hujjatlarni tarjima qilishda ba'zi kamchiliklarning oldini olishga yordam beradi.

9.2. Diplomatik hujjatlarda qo'llaniluvchi asosiy protokol formulalari uch guruhga bo'lingan holda tahlil etildi: 1) murojaat so'zlari; 2) hurmat ma'nosidagi so'zlar; 3) mulozamat so'zlari.

Buning tahlili natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi:

1. Diplomatik hujjatlarda qo'llaniluvchi murojaat so'zlarining har bir turi o'z ma'nosiga va qo'llanilish doirasiga ega. Ma'lum bir murojaat so'zining noo'rin ishlatilishi suhbatdoshlar o'rtasida tushunmovchilik keltirib chiqarishi mumkin.

2. Hurmat ma'nosidagi so'z ko'pincha murojaat so'zlari bilan birga qo'llanadi. Turli toifadagi insonlar uchun turli xil hurmat ma'nosidagi so'zlardan foydalaniladi.

3. Diplomatik hujjatlarning yakuniy qismida qo'llaniluvchi mulozamat so'zlari – komplementar so'zlar ikki turga bo'linadi:

a) rasmiy hujjatning boshlanish qismida yoziladigan salomlashuv so'zlari;

b) rasmiy hujjat yakunida imzodan oldin yoziladigan hurmat–ehtirof ma'nosidagi mulozamat so'zlari.

Birinchi tur mulozamat so'zlari tarkibida mulozamat ma'nosidagi bir necha turg'un iboralarning qo'llanilishi kuzatildi. Ma'lum bir xushomad ma'nosidagi turg'un iboralar G'arb mamlakatlarining qarshilik mazmunidagi notalarida qo'llanilsa, Sharq mamlakatlarining bunday notalarida ularning tushirib qoldirilishi aniqlandi.

10. Tadqiqot davomida turg'un birikmalar tarkibida so'zlarning o'zaro qo'shilishi kuzatildi (morfemalarning emas). Rasmiy hujjatlarda doimiy tipdagi matn mavjudligi bois, ularda tayyor turg'un birikmalar – klishelarning ko'p ishlatilishi misollar yordamida yoritildi.

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI

1. Xashimova S.A. (hozirda Nosirova S.A.), Karimov A.A. Xitoycha–o‘zbekcha–ruscha diplomatik terminlar lug‘ati.–XXR:Xeylongdzyang,2004.–328b.
2. Nosirova S.A. Hozirgi zamon xitoy tilida diplomatik atamalarining miqdoriy tahlili // Sharqshunoslik. – Toshkent, 2004.- № 3.- B. 29-32.
3. Nosirova S.A. Novie slova i ustoychivie sochetaniya v yazike diplomatii KNR// Vostokovedenie.- Tashkent, 2005.- № 2. - S. 7-10.
4. Nosirova S.A. Xitoy tili diplomatik atamalarida qisqartma so‘zlar (abbreviaturalar)ning modellari//Xitoyshunoslikning dolzarb muammo-lari: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2005.- B. 74-78.
5. Nosirova S.A. Xitoy tili diplomatik atamalarini o‘rganish ahamiyati// Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari darajasidagi chet tili o‘qitishning dolzarb muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- Toshkent: O‘zDJTU, 2005. - B.291-293.
6. Nosirova S.A. Xitoy tili kompozisiya usulida atributiv modelning o‘rni va ahamiyati (diplomatik atamalar misolida)// Sharq filologiyasining tugun va yechimlari: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- Toshkent, 2005.- B.135-141.
7. Nasyrova S.A. Quantitative analysis of diplomatic terms in modern chinese, uzbek and russian languages// The Vth International Conference on Translation and Interdisciplinary Studies.- PRC, Shanghai, 12-15.05.2006.- P.248.
8. Nasyrova S.A. On semantics multiple impakt in translation //中国第五届诗歌翻译年会.- PRC, Beijing, 25-29.05.2006.- P. 24.
9. Nosirova S.A. Xitoy tilida “diplomatiya” atamasining tahlili// Xitoyshunoslikning dolzarb muammolari: filologiya, siyosat, iqtisodiyot va falsafa: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2006 yil, 4 dekabr.- B.20-27.
10. Nosirova S.A. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik atamalar yasashida fe’l-ob’ektlilik modelining o‘rni va ahamiyati// Xitoyshunoslikning dolzarb muammolari: filologiya, siyosat, iqtisodiyot va falsafa: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2006 yil, 4 dekabr. - B.31-36.
11. Nosirova S.A. Xitoy tilida diplomatik atamalar yasashida kopulyativ modelning o‘rni va ahamiyati // Sharqshunoslik. – Toshkent, 2006.- № 1.- B. 29-33.
12. Nosirova S.A. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik atamalarining leksik-semantik va struktural tahlili// Aspirant, doktorant va tadqiqotchilarning Respublika ilmiy–amaliy anjumani materiallari